

## SO'RAGAN EDINGIZ

?

### KIMLAR OTA-ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM QILINISHI MUMKIN?

***Ushbu savolga Bosh prokuratura xuzuridagi Majburiy ijro byurosining Qo'shtepa tumani bo'limi boshlig'i Sh.Sultonov javob beradi:***

Oila kodeksining 79-moddasiga ko'ra, ota-onalik (ulardan biri) quyidagi hollarda ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

- 1) ⚡ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;
- 2) ⚡uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xhash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;
- 3) ⚡ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;
- 4) ⚡muttasil ichkilikbozlik yoki giyovandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa;
- 5) ⚡o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa,

Ota-onalar (yoki ulardan biri) tomonidan bolalarga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan holatlar sodir etilsa ular sud tartibida ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

### Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

Facebook,

2022-05-07 21:10:21